

## INTERNET VA INSON RUHIYATI: INTERNETNING INSON RUHIYATIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI.

*Chimanova Nafosat Akbar qizi  
Guliston Davlat Universiteti Sirtqi  
Pedagogika va Psixologiya fakulteti 1-20 guruh talabasi*

**Annatatsiya:** Hozirgi zamон shiddatli hayotimizni internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etib bo'lmasligini namoyon etmoqda. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, kuzatish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq bo`lib qolmoqda va qimmatli vaqtini asosiy qismini shunga sarflashmoqda. Ijtimoy tarmoqlarning bir qator ijobiy taraflari bor bo`lganidek uning insonlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga,ruhiyatiga salbiy ta'siri ham mavjud. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning turlari va ularning insonlar, xususan, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** internet tarmog'i, ommabop, ruhiy holat, axborot texnologiyalari, virtual, global tarmoq, Google tizimi, onlayn konferensiya, ijtimoiy tarmoqlar.

### Kirish.

**Internet bu – hozirgi zamон talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblananadi, bizga barcha sohalarga oid noaniq ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir.**

**Ruhiy holat** — bu inson hayotiy faoliyatining mumkin bo'lgan usullaridan biri bo'lib, u fiziologik darajada ma'lum energiya xususiyatlari bilan, psixologik darajada esa atrofdagi dunyoni o'ziga xos idrok etishni ta'minlaydigan psixologik filtrlar tizimi bilan ajralib turadi (Shcherbatyx Yu. V., Mosina A. N., 2008). N. D. Levitov <sup>11</sup> fikriga ko'ra: *psixik holat* — „muayyan davrdagi psixik faoliyatning voqelikning aks ettirilgan obyekt va hodisalariga, avvalgi holat va shaxs xususiyatlariga bog'liq holda psixik jarayonlarning borishining o'ziga xosligini ko'rsatadigan yaxlit xarakteristikasi“

Internet tarmog'i butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz hizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jahhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda. Ayniqsa bu ta'sir doirasidan o'smir yoshlar ham yo'q emas. Bu borada mutahasislarning so'zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog'idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin

qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, taxlil qilish qobiliyati va xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'limgan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinnlidir. Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda

Internetning ijobiy jihatlari.

21 asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i-internetsiz tasavvur qilish mushkul.

Ma'lumki, internet-axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir.

Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor. Ijtimoiy tarmoqlar yoki messennjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiylar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish.

Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televide niye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Internetning salbiy jihatlari.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa **yoshlarda** axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Repspublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir.

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihatni real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruuhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari beziz emas.

Internetning yana bir salbiy jihatni-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir.

Barchamzga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. O'zingizga kerakli barcha ma'lumotlarni shu kabi biron bir saytning “izlash” katakchasiga yozib, chiqarilgan ko'pgina ma'lumotlar ichidan o'zingizga keraklisini tanlab olaverasiz yoki ma'lum bir saytning manzili yodingizdan ko'tarildimi, yana o'sha qidiruv sistemalari yordamga keladigan saytga aloqador kalit so'zlarini terasiz va qarabsizki o'sha sayt qarshingizda namayon bo'ladi. Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiyligi ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo'y lab tarmoq foydalanuvchilarining o'ntadan yettiasi u yoki bu ma'lumotlarni topish ilinjida aynan mana shu saytga murojat qilishadi. Tizim har kuni 50 millionga yaqin so'rovlarni qabul qiladi, sakkiz milyardlab veb-sahifalarni ideksatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilarini orasida keng ommalashib borayotgan Google tizimi 1998 – yil sentyabrda ishga tushgan. Hozirda bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay hizmatlari mavjud va ular soni ortib bormoqda. Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib keayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomonidan quvonarli bo'lsa – da, ikkinchi tomonidan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz". Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'igailintirishga

intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, oz xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir”[2].

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda bugungi kunimizda internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalarni o’sib kelayotgan yosh avlodga kichik yosh vaqtidan o’rgatib borishimiz zarur bo’ladi,bunda avvalo uyda ota-onalar, bog’chada tarbiyachilar,maktabda o’qituvchilar va mahalla masul bo’lishi zarur. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagи axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

### ***Manbalar:***

1. „Левитов Николай Дмитриевич“. XPOHOC. 2017-yil 2-fevralda asl nusxadan [arxivlangan](#). Qaraldi: 2017-yil 22-yanvar.
2. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo lishi k.k //Xalq so'zi,2017 16 yanvar

### **Foydalanimanadabiyotlar ro'yhati:**

1. IJTMOIY TARMOQLARNI YOSHLAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7178413>
2. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016.5-b
3. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=343>
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshtar-tarbiyasidagi-ahamiyati>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>